




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGI CHAMATKOR YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	O‘zbek va qozoq tillaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.	
15	Mohinur USMONOVA, O‘zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg‘un birikmalarning qiyosiy tahlili	541
16	Hayotxon SALAYEVA, Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida	544
17	Mufassal PARDAYEVA, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi	547
18	Серик ТУРПАНАЛИЕВ, Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты	551
19	Amina DEHQONOVA, O‘zbek va nemis ertaklarida xalqona an‘analar	554
20	Dilrabo KOMILOVA, Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig‘ida ishlatiladigan so‘zlar	558
21	Mohinabonu YUNUSOVA, Toshkent viloyati uyg‘ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari	561
22	Marjona MUSULMONOVA, Boysun tumani bog‘dorchilik leksikasi	565
23	Barchinoy TOSHPO‘LATOVA, Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi	565
24	Moxlaroyim NAZAROVA, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini	574
25	Fotima KOMILOVA, O‘zbek-turk qarg‘ishlarning mifopoetik talqini	576
26	Shohsanam NOMAZOVA, Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va “Sanamgul” dostonidagi obrazlar	580
27	Muhtarama MAMITOVA, Oila mavzusi bilan bog‘liq ayrim o‘zbek va turk maqollarining tipologik tahlili	583
28	Lobar QULDASHEVA, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati	587
29	Sunbula HABIBULLAYEVA, “Shirin va Shakar” dostonida fonetik dialektizmlarning o‘rni (qo‘llanishi)	590
30	Nilufar TURG‘UNOVA, Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari	594
31	Sarvinov RAXIMOVA, G‘ijduvon sandiqsozlik so‘zlari	597
32	Aziza ELMIRZAYEVA, Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko‘chim uyg‘unligi	599
33	Diyora NE‘MATOVA, Folklorida til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	605
34	Hanifa XODJIYEVA, Mavsumiy marosimlar tasnifi	611
35	Husniddin AZIMJONOV, Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida bilga xoqon obrazi	614
36	Sitora O‘KTAMOVA, Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati	617

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDA ETNOGRAFIK
FOLKLORIZMLARNING BADIY-ESTETIK TALQINI

THE ARTISTIC-AESTHETIC INTERPRETATION OF ETHNOGRAPHIC
FOLKLORISMS IN HALIMA XUDOYBERDIYEVA'S POETRY

Moxlaroyim NAZAROVA,

Andijon davlat universiteti

Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi magistranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/ZAWT8844

Annotation. *This article examines the artistic function of ethno-folkloric elements based on the fourth volume of lyrics by the People's Poet of Uzbekistan, Halima Khudoyberdieva. The phenomenon of «materialization of feelings,» characteristic of the poet's work, is analyzed in the context of national material details (cradle, incense, amulets) and ritual actions. The research reveals how the poet synthesizes the folk worldview into the text of modern poetry and through this illuminates the issue of national identity.*

Key words: *Halima Khudoyberdieva, ethno-folklorism, cradle, amulet, incense, artistic materialization, national spirit, lyrical hero.*

Zamonaviy o'zbek she'riyatida milliy ruhni ifodalash usullari rang-barangdir. O'zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyeva ijodi bu borada o'zining hayotiyligi va etnografik boyligi bilan ajralib turadi. Shoiraning "Saylanma" asarlarining to'rtinchi jildidagi bitiklari shunchaki so'zlar jamlanmasi emas, balki "tuyg'ularning rangi va tovushinigina emas, balki qo'l bilan tutsa bo'ladigan darajada moddiylashgani" bilan qiymatlidir. O'zbek xalqi o'zining boy va serqirra milliy qadriyatlari, urf-odatlarini, an'analari hamda xilma-xil marosimlari bilan dunyo miqyosida tanilgan. Xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy merosi uning turmush tarzi, dunyoqarashi va estetik tafakkurida yaqqol namoyon bo'ladi. Folklorizmlarning nazariy tabiatini o'rgangan L.Sharipova folklorizmlarni davriga, qo'llanish o'rniga ko'ra, folklorizmlarning sifatiga ko'ra, qo'llanish yo'nalishi va vazifasiga ko'ra tasnif qilish mumkinligini ta'kidlaydi. Olima folklorshunos A.A.Gorelov tasnifiga asoslangan holda folklorizmlarni qo'llanish yo'nalishi va vazifasiga ko'ra uchga bo'ladi:

a) uslubiy-nutqiy folklorizm;

b) kompozitsion folklorizm;

v) ijtimoiy-etnografik folklorizm" [Шарипова Л., 2011: 35]. Shoiraning she'riyatida etnografik folklorizmlar – xalqning turmush tarzi, moddiy madaniyati va qadimiy e'tiqodlari bilan bog'liq unsurlar lirik qahramon dardini konkretlashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada tizimli-tahlil va etno-poetik talqin metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida shoiraning 4-jildiga kiritilgan «Beshik qoshida», «To'marisning tumori», «Xalqona ohanglarda» kabi o'nlab she'rlari tanlab olindi. Metodologik asos sifatida shoiraning qo'llagan etnografik detallarning an'anaviy folklorik ma'nosi va ularning mualliflik matnidagi yangilangan badiiy vazifasi qiyosiy o'rganildi.

Halima Xudoyberdiyeva she'riyatidagi etnografik folklorizmlarni bir necha guruhga ajratish mumkin:

1. Ashyoviy-etnografik detallar va ularning metaforik yuki.

Shoiraning o'zbek xonadonining ajralmas qismi bo'lgan ashyolarni she'r markaziga olib chiqadi. «Beshik qoshida» [Худойбердиева. Х., 2018:19] she'rida **beshtik** [Турдимов Ш., 2020: 100] obrazi orqali onalik va davomiylik g'oyasi ifodalanadi. Folklorshunos Sh.Turdimov o'zbek xalq qo'shiqlari tarkibida keluvchi beshikni shunday ta'riflaydi, kelajak avlod, bola nasl davomchisi. [Турдимов Ш., 2020: 100] Beshikning "qushqanot"ga qiyoslanishi va uning "o'ydim-o'ydim

gullari” etnografik aniqlikni ta’minlaydi . Shuningdek, shoira xalqimizning bolani asrash bilan bog‘liq qadimiy amallarini keltiradi:

“Isiriq solib bomdod, Ko‘zmunchoq taqib qo‘ydim” .

Bu yerda **isiriq** va **ko‘zmunchoq** [Турдимов Ш., 2020:120] shunchaki etnografik buyum emas, balki lirik qahramonning mehri va duosi moddiylashgan qalqonidir. Shoira beshikni “qushqanot”ga qiyoslar ekan, kelajak avlodning (nabirasining) ulug‘vor yo‘lga – “karvon” bo‘lib chiqishiga ishora qiladi.

2. Mifo-etnografik obrazlar va milliy matonat. “To‘marisning tumori” [Худойбердиева. Х., 2018:147] she’rida **tumor** etnografik ashyodan yuksak falsafiy timsol darajasiga ko‘tariladi. Olim N. Jabborov fikriga ko‘ra, tumor - kishini balolardan asrovchi [Jabborov N., 2020:200]bo‘lsa, shoira talqinida u milliy g‘urur va ayollik matonati ramzidir:

“To‘marisning tumorin taqqan ayol o‘lmaydi!”.

Shoira tumorning “har tirik hujayrada” yashashini ta’kidlash orqali milliy genetik xotirani etnografik detal orqali yangilaydi. Bu ramz orqali tarixiy To‘maris siymosi zamondosh ayol obrazi bilan badiiy jihatdan bog‘lanadi.

3. Lisoniy etnografizm va xalqona ohang. Shoira xalqona turmush tarzidan kelib chiqadigan tashbehlarni mahorat bilan qo‘llaydi. “Xalqona ohanglarda” [Худойбердиева. Х., 2018: 153] turkumida ko‘ngilning **“tuguncha”**ga o‘xshatilishi:

“Manim ko‘nglim tugunchadir”

o‘zbek ayolining ichki dunyosidagi sirlar va sabrni ifodalovchi eng ta’sirli etnografik metaforadir. Shuningdek, “Olasan”[Худойбердиева. Х., 2018:39] she’ridagi insonning “patli qush” va “patsiz qush” sifatida tasvirlanishi xalq og‘zaki ijodidagi ruh va o‘lim haqidagi mifo-etnografik tasavvurlarga tayanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Halima Xudoyberdiyeva ijodidagi etnografik folklorizmlar quyidagi natijalarga xizmat qiladi: Abstrakt lirik kechinmalar aniq va ashyoviy obrazlar orqali kitobxon ko‘ngliga yaqinlashtiriladi. Milliy ashyolar (beshik, tumor, isiriq) lirik matnda ontologik (mavjudlik) mohiyat kasb etib, milliy o‘zlikni asrashning badiiy vositasi bo‘lib keladi. Shoira xalqona ritual elementlarni zamonaviy falsafiy xulosalar bilan sintezlab, o‘zbek she’riyatida o‘ziga xos “halimona” etno-poetik uslubni shakllantirgan.

Halima Xudoyberdiyeva she’riyati etnografik folklorizmlar bilan chuqur sug‘orilgani bois hamisha hayotiydir. Uning 4-jild saylanmasidagi she’rlari orqali biz o‘zbek xalqining ma’naviy olamini ashyoviy va ritual detallar yordamida qayta kashf etamiz. Shoira etnografik unsurlarni shunchaki ko‘chirmachilik bilan emas, balki ularga katta ijtimoiy-falsafiy yuk yuklagan holda ishlatadi. Xulosa qilib aytganda, shoira lirikasi milliy ruhning ashyoviy va lisoniy in’ikosi bo‘lib, u kelajak avlod uchun o‘zbekona qadriyatlarini badiiy shaklda saqlovchi oltin xazinadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шарипова Л. XX асрнинг 70-80-йиллари ўзбек шеърларида фольклоризмлар. – Тошкент: Фан, 2011.
2. Худойбердиева, Ҳалима Сайланма. IV-жилд. / Х. Худойбердиева. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 340 б.
3. Турдимов Ш. Халқ кўшиқларида рамз. – Тошкент.: Фан, 2020.
4. Jabborov N. Mif va badiiy tafakkur. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – 240 b.
5. Imomnazarov M. Folklor va adabiyot munosabati. – Toshkent: Fan, 2017. – 284 b.
6. Qur'onov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 320 b.